



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-iyul

377-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kurash mahorat maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori ijrosi haqida” 339-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kurash mahorat maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori ijrosi haqida” 339-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kurash mahorat maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori ijrosi haqida” 339-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori bilan:

Kurash mahorat maktablarining boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlar jadvali 1-ilovaga muvofiq;

Kurash mahorat maktablarining o‘quvchi-sportchilarini zarur anjomlar, sport ekipirovkasi va formal kiyim-bosh bilan ta‘minlash normativlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Belgilanishicha:

kurash mahorat maktablari ixtisoslashtirilgan davlat sport-ta‘lim muassasasi hisoblanishi hamda o‘z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining “Sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 2-iyundagi 410-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi;

kurash mahorat maktablarida o‘ziga tegishli sport inshootlari imkoniyatlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha ravishda Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan yakkakurash sport turlari ham

rivojlantirilishi mumkinligi; kurash mahorat maktablari o'quvchi-sportchilarining umumiy kontingenti jami 140 nafarni tashkil etib, ular 5-11-sinf o'quvchilaridan iborat bo'lishi;

kurash mahorat maktablari o'quvchi-sportchilarining umumta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olishi kurash mahorat maktabiga yaqin joyda joylashgan umumta'lim maktablarida tashkil etilishi; kurash mahorat maktablari direktori, direktor o'rinbosarlari, trener-o'qituvchilari, yo'riqchi-uslubchilari, tarbiyachilari mehnatiga haq to'lash, shuningdek, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarini, tarbiyachilar mehnatini rag'batlantirish Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" 2005-yil 21-dekabrda 275-son qaroriga muvofiq amalga oshirilishi;

kurash mahorat maktablarida o'quv-mashg'ulot jarayonining davomiyligi va davriyligi sport musobaqalari taqvim hamda o'quvchi-sportchilarning har bir guruhi uchun yakka tartibda sport tayyorgarligi davrlari hisobga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan belgilanishi;

Kurash mahorat maktablariga belgilangan tartibda tasdiqlanadigan sport maktabi sport tadbirlarining taqvim rejasi hamda ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida o'quvchi-sportchilar va trenerlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari bilan kelishgan holda, xalqaro musobaqalarda va xorijda o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulot yig'inlarida qatnashish uchun yuborish huquqi berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan;

Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (M.Isayev) kurash mahorat maktablari o'quvchi-sportchilarini maktabga yaqin joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy o'rta ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan zarur choralarni ko'rishlar inobatga olinsin.

4. Sport maktabi (M.Abduqodirov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi 353-son qarori talablari doirasida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov